



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:

№ _____

2020 yil _____



«Tasdiqlayman»

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

_____ A.Soleyev

_____ 2020 yil

CHET TILI (INGLIZ, NEMIS, FRANSUZ)
FANIDAN MAGISTRATURAGA KIRISH SINOVLARI DASTURI VA
BAHOLASH MEZONI
(ko'zi ojiz abituriyentlar uchun)

SAMARQAND-2020

Chet tili (ingliz, nemis, fransuz) fanidan dastur va baholash mezonlari

Tuzuvchilar: SamDU Ingliz tili kafedrası mudiri, prof. R.Gargesh

SamDU Roman-german tillari kafedrası mudiri, katta o'qituvchi A. A. Xasanov

Taqrizchilar: SamDU Roman-german tillar kafedrası professor M.Yuldashev

SamDChTI Ingliz tili va adabiyoti kafedrası mudiri, dots. G.Obruyeva

Kirish

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, yuqori malakali yetuk mutaxasislarga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida, magistraturaga qabul O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020/2021 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi 2020 yili 17 iyundagi PQ-4359-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishi ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 393 - sonli Qarori bilan tasdiqlangan 2-ilova "Oliy ta'lim muassasalarining magistraturasiga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom" va ushbu qarorga kiritilayotgan o'zgarishlar va qo'shimchalar to'g'risidagi 2019 yil 27 apreldagi 360 - sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda milliy hamda xalqaro baholash tizimlari sertifikatlarini tatbiq qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori asosida amalga oshiriladi.

Mazkur namunaviy dastur O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining nofilologik ta'lim yo'nalishlarini muvaffaqiyatli tamomlab, o'z mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga o'qishga kiruvchilar uchun mo'ljallangan. Namunaviy dastur magistraturaga kiruvchilarning chet tili bo'yicha asosiy nutq faoliyat turlari bo'yicha bilimlarini sinovdan o'tkazishga qaratilgan.

Oliy ta'lim tizimida chet tilini o'qitish nofilologik ta'lim yo'nalishlari uchun Davlat ta'lim standartlari talablariga mos ravishda chet tilini mukammal egallagan mutaxassis kadrlar tayyorlashning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mazkur namunaviy dastur doirasida sinov topshiruvchi talabgorlar o'rganilayotgan tilning muayyan dasturlar asosidagi orfografik, orfoepik, grammatik, leksik va

stilistik normalalarini egallashlari, ularning barcha nutq faoliyati turlarida yozma va og'zaki shaklda to'g'ri qo'llay olishlari talab etiladi.

Chet tili bo'yicha talabgorlarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

Magistraturaga kiruvchi talabgorlar chet tili bo'yicha bakalavriat ta'lim yo'nalishida egallangan quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari kerak:

- chet tilining morfologik tuzilishi va tovush tizimi;
- chet tilining me'yoriy grammatika asoslari, muloqotning og'zaki va yozma turlari;
- nutqning dialogik va monologik shakllari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- chet tilining zamonaviy holati tavsifi, yozuv, orfografiya, punktuatsiya, leksik-grammatik turkumlar masalalari;
- chet tilining til grammatik va sintaktik xususiyatlari, sodda va qo'shma gaplar;
- chet tilida so'zlovchi shaxslarning keng tarqalgan kundalik va kasbiy vaziyatlarda so'zlagan nutqini tushuna olish hamda ulardan o'zi uchun zarur bo'lgan axborotni olish;
- turli janrga oid matnlarni chet tilidan ona tiliga va ona tilidan chet tiliga og'zaki va yozma shakllarda tarjima qilishni bilish va ulardan foydalana olish;
- chet tilida boshqa shaxslar bilan kasbiy va maishiy vaziyatlarda jonli muloqot olib borish, ma'ruza qilish;
- chet tili va o'qitish olib borilayotgan tildagi ma'lumotlarni qo'llab annotatsiya, referat, ma'lumotlar tuzish;
- yangi informatsion texnologiyalardan kasbga yo'naltirilgan maqsadlarda foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Nutq faoliyati turlari bo'yicha talablar

Gapirish

Talabgor monologik nutq doirasida o'rganilgan mavzu bo'yicha chet tilida ravon gapira olishi, muayyan matn mazmunini gapirib berishi, dialogik nutq doirasida kundalik, mutaxassislik mavzularida suhbat olib borishi, savollarga talab darajasida javob bera olishi kerak.

Tinglab tushunish

Talabgor chet tili materialiga tayangan holda kundalik, mutaxassislik mavzudagi, mamlakatshunoslik va ixtisoslik bo'yicha monologik va dialogik nutqni tushuna olishi kerak.

O'qib tushunish

Talabgor o'qishning barcha turlari bo'yicha chet tilidagi kundalik, mutaxassislik, ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-ommabop mavzudagi matnni o'qiy olishi, tushuna olishi hamda amaliyotda qo'llay olishi kerak.

Yozuv

Talabgor orfoepik va orfografik til qoidalariga amal qilgan holda o'z fikrini yozma bayon qilishi, chet tili materiallari doirasida ma'lum bir matnni yozma tarjima qila olishi kerak.

Chet tili bo'yicha magistraturaga kirish sinovlari mavzulari va ularning mazmuni

- Oila va jamiyat.
- Talabalik hayoti.
- Do'stlik. Eng yaqin do'stim.
- Muloqot va uning turlari. Telefon orqali muloqot.
- Mutaxassislik va kasbiy faoliyat.
- Tili o'rganilayotgan mamlakat geografiyasi, iqlim sharoitlari.
- Tili o'rganilayotgan mamlakat aholisi, davlat tuzilishi.
- O'zbekiston Respublikasining davlat tuzilishi.
- Tili o'rganilayotgan mamlakat shaharlari. O'zbekistonning turistik shaharlari.
- O'zbekistonning milliy bayramlari.
- Tili o'rganilayotgan mamlakatning milliy bayramlari.
- Tili o'rganilayotgan mamlakatning urf-odatlarini, an'analari.
- O'zbekiston Respublikasining va tili o'rganilayotgan mamlakatning milliy ramzlari.
- O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatda adabiyot va san'at.
- O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatda sport.
- O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatda turizm.
- O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatlarning milliy taomlari.
- Xarid qilish. Bozor va supermarket.
- Mehmonxonaga buyurtma berish va unda yashash.
- Ekologiya va salomatlik.
- O'zbekistonda ta'lim tizimi.
- Tili o'rganilayotgan mamlakat ta'lim tizimi.
- Jamiyatda ayollarning tutgan o'rni.
- O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakat o'rtasidagi madaniy aloqalar.
- Biznes kommunikatsiyasi
- Boshqaruv

- Majlislarni olib borish
- Telefon orqali muloqot
- Biznesga oid xatlarni yozish.

Chet tili bo'yicha sinov mazmuni tuzilishi va baholash mezonlari

Chet tili fani bo'yicha talabgorning bilim darajasini belgilovchi sinov o'tkaziladi, baholash mezonlari 0 ball dan 50 ball gacha tashkil qiladi. Sinovda beriladigan har bir variantda 5 ta savol beriladi, ulardan 2 tasi yozma ko'nikma (writing) va 3 tasi og'zaki (speaking) ko'nikmani baholash uchun mo'ljallangan. Har bir savol maksimal 10 ball bilan baholanadi.

Xalqaro tan olingan chet tilini bilish darajasi haqidagi sertifikat (TOEFL bo'yicha kamida 72 yoki IELTS bo'yicha kamida 5,5 ball, TestDaF (TDN3), CEFR bo'yicha kamida B2) yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan beriladigan Chet tilini bilish darajasi haqidagi B2 yoki C1 darajasidagi sertifikat taqdim etganlarga chet tilidan 50 ball qo'yiladi va ular chet tilidan kirish sinovida ishtirok etmaydi.

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari nazarda tutilsa, murojaat qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyent haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ismailov A.A., Fyodorov V.A. Home study book (Zero Level, Elementary level). - Tashkent, 2008.
2. Ismailov A.A., Fyodorov V.A. English for market economy. - Tashkent, 2008.
3. Shlach Don. How to write essay. - Oxford, 2009.
4. Hewings M. Advanced Grammar in use. - Cambridge, 1998.
5. Slobodkina N.A., Abduraimova B., Rustamova Z., Tukhlieva G. Practical English grammar. - Tashkent, 2011.
6. Alovuddinova X., Rajabova D., Qambarova N., Ikromov T. English for ICL and ESP Learners. - Tashkent, 2012.
7. Baqoeva M., Muratova E., Ochilova M. Ingliz adabiyoti. - T., 2010.


8. История зарубежной литературы второй половины XX века: учебник. Яценко В.М. Издание: 2-е. – М.: Флинта: Наука, 2012.
9. Aliqulova D.A. Fransuz tili darsligi. Toshkent, 1999 y.
10. Hasanova D.G., va boshqalar. Fransuz tili darsligi. - Toshkent, 1997 y.
11. Toshev Z. Nemis tili. - Toshkent, 1997 y.
12. Jumaniyazov O. Nemis tili darsligi. Gumanitar fakultetlar uchun. - Toshkent, 1997 y.

SamDU ingliz tili
kafedrasi mudiri



prof. Ravinder Gargesh

SamDU roman-german tillari
kafedrasi mudiri



k.o'qit. A.A.Xasanov

